XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 30 - iyun VI-50-63-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

Tumanning "Duoba", "Temir darvoza" va "Dahnaijom" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ayrim ko'chalarning nomlarini o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yil 2-fevraldagi 06-06/12-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 18-fevraldagi 18-07/50-sonli hamda Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli "Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi tshg'risida"gi yig'ilish bayonlarini ko'rib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yil 2-fevraldagi 06-06/12-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 18-fevraldagi 18-07/50-sonli hamda Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli "Geografik obyektlarga nom berish va

ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgaradigan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (A.R.Saidov), tuman qurilish bo‘limi (X.N.Sharipov), tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni, shuningdek yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (D.Q.Boboyev) nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (X.N.Sharipov) hududlarda yangi nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati (Yu.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.B.Bahovuddinov), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.N.Tursunqulov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Ch.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2022 yil 30 iyundagi
VI-50-63-8-110-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda nomlari o‘zgaradigan ko‘chalarning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Duoba MFY	O‘rmonli	1. Pedagoglar 2. Barhayot 3. Iftixor	Pedagoglar
2.	Ko‘cha	Duoba MFY	Qorli	1. Merganli 2. Polvonli 3. Gumazak	Merganli
3.	Ko‘cha	Temir Darvoza MFY	Mahshar	1. Chambul 2.Chashmasor 3. Anjirli	Chambil
4.	Ko‘cha	Dahnaijom MFY	Yantoqli	1. Yarmat 2. Markaz 3. Turklar	Turklar